



## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI ILMIYSAVODXONLIKLARINI OSHIRISH**

**Burxonov Shavqiddin Sherali o‘g‘li**

**Jiizax davlat pedagogika universiteti Makatabgacha va boshlang‘ich  
yo‘naliishlarda masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**

**Tel: +99888 860 00 96**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqora baholash dasturi orqali o‘qish, matematika va tabiiy –ilmiy savodxonliklarini o‘rganish texnologiyasi masallarni o‘rganish haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется изучению учащихся начальных классов в рамках Международной программы оценивания, изучению математических и естественнонаучных примеров технологии грамотности.

**Annotation:** This article focuses on the study of primary school students in the framework of the International Assessment Program, the study of mathematical and natural science examples of literacy technology.

**Kalit so‘zlar:** Xalqora baholash, dastur orqali o‘qish, PIRLS, savodxonlik, o‘rganish texnologiyasi.

**Ключевые слова:** Международное оценивание, чтение через программу, ПИРЛС, грамотность, технология обучения.

**Keywords:** International assessment, read through programs, PIRLS, literacy, learning technology.

Hozirgi zamonning eng ilg‘or texnologiyasi bu teskorlikdir yani tezlik asri bo‘lgan ayni vaqtida inovatsiyon texnologiyalardan keng foydalanish va ularni hayotga tadbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Birgina misol yetakchi ta’lim tashkilotlarni, ilg‘or ishlab chiqish karxona va zavotlarini ham komunikatsiyon texnologiyalsiz tasavur etib bo‘lmaydi. Shunday tezlik va texnika asrida tez, aniq, ongli ravishda fikr yuritadigan va ularni amalga oshiradigan yosh avlodni tarbiyalashimiz kerak. O‘sib kelayotgan avlod bunday shidat bilan rivojlanib borayotgan zamonda xorij ilm maydonlarida samarali natija ko‘rsata olishi va rivojlanish strategiyalarini aniq maqsadda tushina olishi uchun albatta ilm salohiyati yuqori darajada ertamiz egalarini tarbiyalashimiz lozim. Misol

tariqasida mustaqil O‘zbekistonimiz innovatsion rivojlanish javhasida shiddat bilan rivojlanib bormoqda bunday rivojlanishning solmog‘i yanada sizilarni darajada oshishi uchun albatta o‘quvchi yoshlarimizning ijodiy g‘oyalari va intelektini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ajdodlariag munosib voris bo‘lishiga, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga shu bilan bir qatorda dunyo miqyosida yetakchi o‘rinlarda turuvchi ilg‘or xorijiy tajribalari, xalqaro talab va mezonlari asosi o‘laroq bizning ta’lim jarayonida ham baholash tizimini takomillashtirish, shu bilan bir vaqtida ilg‘or xorijiy baholash dasturlarni joriy etish va o‘rganish maqsadga mofiqdir.

Xalqora baholash bizga nima beradi? Xalqora baholash bu yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarining sifat ko‘rsatkichlaridir. Bunday sifat ko‘rsatkichda eski qolibga solinib qolgan uyga vazifa jarayonida faqatgina yozish, o‘qish, yod olish va so‘zlab berishdan iborat emas. Yani har bir o‘quvchi dars maboynida idrok qilishi, fikr mulohoza yuritishi hamda o‘zlarining yashirin qobilyatlarini ochishi mumkin. Bu borada bir necha fanlar kesimida ko‘rib chiqamiz;

- O‘qish – darslarda ta’limi bo‘yicha o‘quvchilarning salohiyatni faqat matn bilan tanishtirish yordamida oshirib bo‘lmaydi. Chunonchi matn bu tarbiyaviy g‘oya bo‘lishi mumkin lekin uni tushunish, idrok qilish va fikir yuritish samarasi kamroq bo‘ladi. Aniqroq aytganda, har bir hikoya va ertagdagagi yashirin mazmun va mohiyat, o‘quvchi tomonidan ochilishi uchun matn tahlili jarayonida o‘qituvchining savollariga o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashshi va voqiya –hodisalarini jonlantirishga xismat qiladi.

Hikoya va ertak matni bilan ishslash barobarida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, talimoti ham nazarda tutiladi misol uchun, tabiatga oid mavzu bunda eng avvalo tabiat bag‘riga sayohat uyushtirilishi lozim, o‘quvchilarga kuzatuvchanlikka o‘rgatiladi, olia mavzusiga oid matni o‘quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga doir yoki oilaning o‘rni ota-onha va yaqin qarindoshlarga bo‘lgan milliycha mehir oqibat samarasini ko‘rish mumkin.

- Matematika – dars jarayonida 4 amalar ustida ishslash, natijalarini taqqoslash bu o‘quvchini zeriktrishi va natijaviylik yuzak bo‘lib qolishi olib kelishi mumkin. O‘qituvchi tomonidan berilgan manqtiqiy masalalar har tamonlama bolani fikrlashga mantiqga tayanishga yoshligidan o‘rgatib boshlaydi. Xususan hayoti misollar natijasida qiziqlishi oshib tezroq fikrlashga va sof raqobat paydo bo‘lishga

xizmat qiladi. Naiyki texnika va texnologiya tarqiyotida matematikani o‘rni katta bo‘lganidek hayotda ham mantiqiy va arifmetik masalalarning ham o‘rni beqiyosdir.

Boshlang‘ich ta’limda muammolarini tasniflash, ehtimollar nazariyasi elementlarini o‘rganish darajasini oshirish kerak yani aniq fo‘rmila yoki jadval asosida emas balki bola o‘ylanib fikr mulohaza yuritishga majburlaydigan masalalar to‘plamini joriy etish zarur. Matematikani o‘qitish ko‘nikmasini o‘zgartirish va shunga o‘xshash mazmundagi fikr mulohazalarni ko‘rib chiqish talab etiladi. Mazmuni jihatdan yuqori natijaga erishadigan mantiqiy masalalarni boshlang‘ich sinf darsliklarida ham qo‘llash bu o‘sib kelayotgan ysoh avlodni terang fikrlashga, xususiy intelektni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish. [1]

PIRLS - Mazkur dastur 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Hamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. [2]

Xalqora baholash dasturi bo‘yicha o‘quvchi yoshlarni tayyorlash va ular bilan ishlash yuzasidan xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish, tabiiy, matematik savodxonligini baholash, o‘quvchilar savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini loyihashtirish, PISA va PIRLS tadiqotlarida o‘quvchilar savodxonligini baholashning tamoyillari, maqsadlari, shakllari yuzasidan treninglar olib borilishi lozim. Seminarda O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan PISA hamda ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan o‘tkaziladigan PIRLS xalqarotadqiqotlarida ishtiroketishning afzalliklari, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari va kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar to‘g‘risida axborot berish. Shuningdek, barcha

yig‘ilish va trenglarda tadqiqotida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini baholash bo‘yicha ham ma’lumotlar beribborish, PISA va PIRLS xalqaro dasturlari topshiriqlari yuzasidan amaliy mashg‘ulotlar olib borish. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liqidir. Unda ishtirok etish, nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya’ni mакtabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni
2. Safarov, B.N. (2022). Pirls-xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish bo‘yicha taraqqiyot. Ta’lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138
3. Turakulov X. A., Buktakov S. Civilizational Pedagogical Systems-Intellectualization Of Educational Content As A Didactic Basis //International Scientific and Current Research Conferences. – 2020. – C. 145-147.
4. Bo‘ltakov S. X. SIVILIZATSION PEDAGOGIK TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 262-265.
5. Bo‘ltakov S. X. Practical aspects of using civilized pedagogical systems in the training of future primary school teachers //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 71-73.
6. <https://uzreport.news/society/prlic>

**Research Science and  
Innovation House**